



MOLIYAVIY HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI

dots. **Tulayev Mirzakul**

Xalqaro Nordik universiteti,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

ORCID: 0000-0002-0612-5635

m.tulaev@nordicuniversity.org

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining 2026 yilda qabul qilingan "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" hamda IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan Conceptual Framework for Financial Reporting o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida moliyaviy hisobotning maqsadi, foydali moliyaviy ma'lumotning sifat tavsiflari, aktivlar va majburiyatlarning ta'riflari, moliyaviy hisobot elementlarini tan olish, hisobdan chiqarish va baholash asoslari qiyosiy o'rganildi. Shu bilan birga, milliy amaliyotda diskontlangan baholash usullarini qo'llash, haqqoniy qiymatni aniqlash va professional mulohazalardan foydalanish bo'yicha qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida milliy buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: konseptual asos, moliyaviy hisobot, IFRS, aktivlar, majburiyatlar, haqqoniy qiymat, moliyaviy hisobot sifati, buxgalteriya hisobi.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНЫХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ ПОДХОДОВ

доц. **Тулаев Мирзакул**

Международный университет Нордик,

Университет мировой экономики и дипломатии

Аннотация. В статье проведён научный анализ сходств и различий между Концептуальными основами подготовки и представления финансовой отчётности, принятыми в Республике Узбекистан в 2026 году, и Концептуальными основами финансовой отчётности, разработанными Фондом МСФО (IFRS Foundation). В рамках исследования в сравнительном аспекте рассмотрены цели финансовой отчётности, качественные характеристики полезной финансовой информации, определения активов и обязательств, а также принципы признания, прекращения признания и оценки элементов финансовой отчётности. Кроме того, выявлены отдельные проблемы национальной практики, связанные с применением методов дисконтированной оценки, определением справедливой стоимости и использованием профессионального суждения. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование национальной системы бухгалтерского учёта.

Ключевые слова: концептуальные основы, финансовая отчётность, МСФО, активы, обязательства, справедливая стоимость, качество финансовой отчётности, бухгалтерский учёт.

THE CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR FINANCIAL REPORTING: A COMPARATIVE ANALYSIS OF NATIONAL AND INTERNATIONAL APPROACHES

assoc. prof. **Tulaev Mirzakul**
International Nordic University,
University of World Economy and Diplomacy

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the similarities and differences between the Conceptual Framework for the Preparation and Presentation of Financial Statements adopted in the Republic of Uzbekistan in 2026 and the Conceptual Framework for Financial Reporting developed by the IFRS Foundation. The study comparatively examines the objectives of financial reporting, the qualitative characteristics of useful financial information, the definitions of assets and liabilities, and the principles of recognition, derecognition, and measurement of financial statement elements. In addition, several challenges in national practice were identified, including the application of discounted valuation methods, the determination of fair value, and the use of professional judgment. Based on the research findings, practical recommendations were developed to further improve the national accounting system.*

Keywords: *conceptual framework, financial reporting, IFRS, assets, liabilities, fair value, financial reporting quality, accounting.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kapital bozorlarining rivojlanishi, transmilliy investitsiyalar hajmining o'sishi va korporativ boshqaruv tizimlarining takomillashuvi moliyaviy axborot sifatiga nisbatan yuqori talablarni shakllantirdi. Investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan axborotning ishonchliligi va qiyoslanuvchanligiga bog'liq.

Shu nuqtai nazardan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari buxgalteriya hisobi tizimining fundamental elementi hisoblanadi. Konseptual asos buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish va qo'llashda yagona nazariy platformani ta'minlaydi hamda hisobot elementlarini tan olish, baholash va taqdim etish bo'yicha umumiy qoidalarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2026 yilda «Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari» qabul qilindi. Ushbu hujjat avvalgi 2024 yilgi konseptual asos o'rnini egallab, milliy moliyaviy hisobot tizimini IFRS Conceptual Framework talablariga yanada yaqinlashtirdi.

Tadqiqotning maqsadi milliy va xalqaro konseptual asoslarni qiyosiy tahlil qilish hamda milliy hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- milliy konseptual asosning mazmun-mohiyatini tahlil qilish;
- IFRS Conceptual Framework bilan taqqoslash;
- o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash;
- amaliyotda uchrayotgan muammolarni baholash;
- takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotining fundamental qismi hisoblanadi. Konseptual asoslarning asosiy

vazifasi moliyaviy hisobotning maqsadi, sifat xususiyatlari, hisobot elementlari hamda ularni tan olish va baholash tamoyillarini belgilash orqali buxgalteriya standartlarining izchilligini ta'minlashdan iborat.

Konseptual asoslarni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dastlab AQSHning Financial Accounting Standards Board (FASB) tomonidan olib borilgan. FASB (1978) moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi investorlar va kreditorlarni qaror qabul qilish uchun foydali axborot bilan ta'minlashdan iboratligini asoslab bergan. Keyinchalik ushbu yondashuv xalqaro darajada rivojlantirilib, International Accounting Standards Board (IASB) tomonidan Conceptual Framework for Financial Reporting hujjati ishlab chiqildi.

IASB (2024) konseptual asosni moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqish uchun metodologik baza sifatida baholaydi. Unda moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydali axborot bilan ta'minlash ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, moliyaviy ma'lumotning fundamental sifat xususiyatlari sifatida o'rinalilik (relevance) va haqqoniy taqdim etish (faithful representation), qo'shimcha sifat xususiyatlari sifatida esa qiyoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, o'z vaqtida taqdim etish va tushunarliklik belgilangan.

Muallif Tulayev (2023) fikriga ko'ra, milliy va xalqaro standartlar bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarning o'rtasidagi farq moliyaviy hisobotning oxirgi iste'molchilarida ifodalanadi. O'zbekistondagi moliyaviy hisobotlarda fiskal hisobot qoidalari ko'proq uchraydi, ya'ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari mamlakat statistika va soliq muassasalari hisoblanadi (Tulayev, 2023)

Kieso, Weygandt va Warfield (2023) moliyaviy hisobot konseptual asosini buxgalteriya hisobining nazariy arxitekturasi sifatida tavsiflaydi. Mualliflarning fikricha, konseptual asos buxgalteriya standartlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda hisob siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Ularning ta'kidlashicha, aktivlar va majburiyatlarning zamonaviy ta'riflari iqtisodiy mazmuni huquqiy shakldan ustun qo'yish imkonini beradi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilida IFRS'ni qabul qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar kompleks tarzda o'rganilib, buxgalteriya qoidalari va tamoyillari, mutaxassislar malakasi, milliy hisob modellari, davlat qo'llovi va menejrlarning tushunchalari IFRS'ni joriy etish samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida qayd etiladi (Pardayevich, 2023)

Needles va Powers (2022) tadqiqotlarida moliyaviy hisobotning konseptual asoslari axborotning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida baholangan. Mualliflar investorlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar sifati hisobotdagi axborotning qiyoslanuvchanligi va haqqoniyligiga bevosita bog'liq ekanligini asoslab berganlar.

Alexander, Britton va Jorissen (2020) xalqaro moliyaviy hisobot tizimini tahlil qilish jarayonida konseptual asoslarning asosiy vazifasi turli mamlakatlar buxgalteriya tizimlari o'rtasidagi farqlarni qisqartirish va hisobotlarning qiyoslanuvchanligini ta'minlashdan iborat ekanligini qayd etganlar. Mualliflar global kapital bozorlarining rivojlanishi sharoitida konseptual asoslarning ahamiyati tobora ortib borayotganligini ta'kidlaydilar.

Nobes va Parker (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda turli mamlakatlar buxgalteriya tizimlarining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Mualliflar xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy qilinishi milliy hisob tizimlari o'rtasidagi farqlarni qisqartirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Ular konseptual asoslarni global hisobot muhitini shakllantiruvchi muhim instrument sifatida baholaydilar.

Deegan (2023) moliyaviy hisobot nazariyasi nuqtayi nazaridan konseptual asoslarni tahlil qilib, ularning asosiy vazifasi iqtisodiy voqelikni haqqoniy aks ettirishdan iborat ekanligini qayd etadi. Muallifning fikricha, haqqoniy qiymat va diskontlangan qiymat kabi baholash usullarining keng qo'llanilishi hisobot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Godfrey, Hodgson, Tarca, Hamilton va Holmes (2022) konseptual asoslarni institutsional va agentlik nazariyalari nuqtayi nazaridan tahlil qilib, moliyaviy hisobotlarda axborot

asimetriyasini kamaytirishda ularning ahamiyatini asoslab berganlar. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, konseptual asoslar korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahsulot sotish hajmini oshirishda, buxgalteriya tizimini tashqi iqtisodiy faoliyatda eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar hisob tizimiga yaqinlashtirish, jozibador omillardan biri hisoblanadi. (Qlichev, 2022)

O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan qabul qilingan "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" milliy buxgalteriya hisobi tizimini IFRS Conceptual Framework talablariga uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim normativ hujjat hisoblanadi. Unda aktivlar va majburiyatlarning zamonaviy ta'riflari, tan olish mezonlari, hisobdan chiqarish tartibi va baholash asoslari xalqaro yondashuvlarga muvofiq qayta ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro adabiyotlarda konseptual asoslarning nazariy jihatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan milliy konseptual asoslarning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi, ularning milliy hisob amaliyotiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini baholashga bag'ishlangan kompleks tadqiqotlar hozircha yetarli darajada emas. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" hamda IFRS Foundation tomonidan qabul qilingan Conceptual Framework for Financial Reporting o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, ularning moliyaviy hisobot sifatiga ta'sirini baholash va milliy hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini xalqaro va milliy buxgalteriya hisobi standartlari, moliyaviy hisobot konseptual asoslari, buxgalteriya hisobi nazariyasi bo'yicha fundamental ilmiy ishlar hamda iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari tashkil etdi. Xususan, IASB tomonidan nashr etilgan Conceptual Framework for Financial Reporting (2024), O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" (2026), "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek Kieso, Weygandt, Warfield, Needles, Powers, Alexander, Nobes va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir nechta ilmiy usullar kompleks qo'llanildi.

Birinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul orqali milliy va xalqaro konseptual asoslarning mazmuni, maqsadi, vazifalari, hisobot elementlari hamda ularni tan olish va baholash mezonlari o'rganildi. Normativ hujjatlar tahlili buxgalteriya hisobining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul yordamida milliy konseptual asos va IFRS Conceptual Framework bo'yicha moliyaviy hisobotning maqsadi, foydalanuvchilari, sifat xususiyatlari, aktivlar va majburiyatlarning ta'riflari, baholash asoslari hamda tan olish mezonlari taqqoslandi. Qiyosiy tahlil natijalari milliy hisob tizimining xalqaro standartlarga qay darajada uyg'unlashtirilganligini baholash imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli qo'llanildi. Mazkur usul yordamida konseptual asosda belgilangan tamoyillarning tashkilotlar moliyaviy hisobotiga ta'siri baholandi. Shuningdek, moliyaviy hisobot sifati, axborotning ahamiyatligi va ishonchliligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi.

To'rtinchi bosqichda tizimli yondashuv usulidan foydalanildi. Ushbu usul moliyaviy hisobot elementlari – aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar

o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish imkonini berdi. Natijada moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayoni yagona tizim sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy qismini shakllantirish maqsadida keys-stadi (Case Study) usulidan ham foydalanildi. Unda shartli ravishda "AVS Invest" MCHJ misolida moliyaviy hisobot elementlarini tan olish va baholash jarayonlari tahlil qilindi.

Amaliy keys

Tashkilot 2026-yil 1-yanvarda ishlab chiqarish uskunasini 500 mln so'mga xarid qildi. Uskunaning xizmat muddati 10 yil etib belgilangan.

Milliy konseptual asos va IFRS talablariga muvofiq mazkur operatsiya iqtisodiy resurs sifatida aktivni tan olish mezonlariga javob beradi, chunki:

- tashkilot aktiv ustidan nazoratga ega;
- kelgusida iqtisodiy naf olinishi kutilmoqda;
- qiymatini ishonchli baholash mumkin.

Shunga muvofiq buxgalteriya yozuvi quyidagicha amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarish uskunasi uchun oldindan mol yetkazib beruvchiga 100% miqdorida avans to'landi:

Dt 4320 "Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun berilgan avans"

Kt 5110 "Hisob-kitob schyoti" – 500 000 000 so'm

Ishlab chiqarish uskunasi omborga qabul qilindi:

Dt 0710 "O'rnatiladigan asbob uskunalari" – 500 000 000 so'm

Kt 6010 "Mol yetkazib beruvchiga to'lanadigan schyotlar" – 500 000 000 so'm

Ishlab chiqarish uskunasi montajga berildi (o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni hisobda aks ettirmadik):

Dt 0810 "Tugallanmagan ishlab chiqarish" – 500 000 000 so'm

Kt 0710 "O'rnatiladigan asbob uskunalari" – 500 000 000 so'm

Ishlab chiqarish uskunasi qabul qilindi:

Dt 0130 "Mashina va uskunalari" – 500 000 000 so'm

Kt 0810 "Tugallanmagan ishlab chiqarish" – 500 000 000 so'm

Yil yakunida to'g'ri chiziqli usul bo'yicha amortizatsiya miqdori:

$500\,000\,000 / 10 = 50\,000\,000$ so'm

Buxgalteriya yozuvi:

Dt 2010 "Amortizatsiya xarajatlari" – 50 000 000 so'm

Kt 0230 «Uskunaning jamg'arilgan amortizatsiyasi» – 50 000 000 so'm

Ushbu amaliy keys konseptual asosda belgilangan aktivlarni tan olish, baholash va keyingi hisobga olish tamoyillarining amaliyotda qo'llanilishini namoyon etadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda diskontlangan qiymat usuli bo'yicha ham modellashtirish amalga oshirildi. Masalan, tashkilot kelgusi 5 yil davomida har yili 100 mln so'mdan pul oqimlari olishi kutilsa va diskont stavkasi 14 foizni tashkil etsa, mazkur aktivning joriy qiymati diskontlash usuli orqali hisoblanadi. Bu esa konseptual asosda nazarda tutilgan zamonaviy baholash yondashuvlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar umumlashtirish, guruhlash va tahliliy baholash usullari orqali qayta ishlandi. Natijalar asosida milliy konseptual asosning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi baholandi hamda moliyaviy hisobot sifatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi normativ tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-mantiqiy tahlil, keys-tahlil va modellashtirish usullarining uyg'unlashuviga asoslangan bo'lib, bu tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" hamda IFRS Foundation tomonidan qabul qilingan Conceptual

Framework for Financial Reporting hujjatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari milliy konseptual asosning asosiy qoidalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari bilan yuqori darajada uyg'unlashtirilganligini ko'rsatdi.

Avvalo, moliyaviy hisobotning maqsadi bo'yicha tahlil natijalari har ikki hujjatda ham moliyaviy hisobot investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'lgan axborotni taqdim etishga qaratilganligini ko'rsatdi. Milliy konseptual asosda davlat organlari va boshqa foydalanuvchilarga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu milliy iqtisodiyot xususiyatlari bilan izohlanadi.

1-jadval

Moliyaviy hisobot maqsadlarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Milliy konseptual asos	IFRS Conceptual Framework
Moliyaviy hisobot maqsadi	Iqtisodiy qarorlar uchun foydali axborot taqdim etish	Iqtisodiy qarorlar uchun foydali axborot taqdim etish
Asosiy foydalanuvchilar	Investorlar, kreditorlar, davlat organlari	Investorlar va kreditorlar
Resurslarni boshqarishni baholash	Mavjud	Mavjud
Kelgusi pul oqimlarini baholash	Mavjud	Mavjud

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy hisobotning sifat xususiyatlari bo'yicha ham milliy va xalqaro yondashuvlar deyarli bir xil hisoblanadi. Har ikki hujjatda ahamiyatlilik va haqqoniy taqdim etish fundamental sifat xususiyatlari sifatida belgilangan. Qiyoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, tushunarlilik va o'z vaqtidalik esa axborotning foydaliligini oshiruvchi xususiyatlar sifatida e'tirof etilgan.

2-jadval

Moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari

Sifat xususiyati	Milliy konseptual asos	IFRS
Ahamiyatlilik	+	+
Haqqoniy taqdim etish	+	+
Qiyoslanuvchanlik	+	+
Tekshiriluvchanlik	+	+
Tushunarlilik	+	+
O'z vaqtidalik	+	+

Tadqiqotning keyingi bosqichida moliyaviy hisobot elementlari tahlil qilindi. Natijalar milliy konseptual asosda aktivlar va majburiyatlarga berilgan ta'riflar IFRS Conceptual Framework bilan deyarli bir xil ekanligini ko'rsatdi.

3-jadval

Moliyaviy hisobot elementlarining qiyosiy tahlili

Element	Milliy konseptual asos	IFRS Conceptual Framework
Aktiv	Nazorat qilinadigan iqtisodiy resurs	Nazorat qilinadigan iqtisodiy resurs
Majburiyat	Amaldagi iqtisodiy majburiyat	Amaldagi iqtisodiy majburiyat
Xususiy kapital	Aktivlar va majburiyatlar farqi	Aktivlar va majburiyatlar farqi
Daromad	Iqtisodiy nafning ortishi	Iqtisodiy nafning ortishi
Xarajat	Iqtisodiy nafning kamayishi	Iqtisodiy nafning kamayishi

Tadqiqot jarayonida aktivlarni tan olish mezonlarining amaliy qo'llanilishi ham o'rganildi.

Amaliy misol 1. Asosiy vositani tan olish

"AVS Invest" MCHJ 2026-yilda ishlab chiqarish uskunasi 500 mln so'mga xarid qildi.

Uskunadan kelgusi 10 yil davomida iqtisodiy naf olinishi rejalashtirilgan.

Konseptual asos talablariga muvofiq mazkur obyekt aktiv sifatida tan olinadi, chunki:

- tashkilot aktiv ustidan nazoratga ega;
- kelgusida iqtisodiy naf keltirishi kutilmoqda;
- qiymatini ishonchli baholash mumkin.

Buxgalteriya yozuvi:

Dt 0110 – Asosiy vositalar 500 000 000 so'm

Kt 5110 – Hisob-kitob schyoti 500 000 000 so'm

Bu misol aktivlarni tan olish bo'yicha milliy va xalqaro yondashuvlar bir xil ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, baholash asoslari bo'yicha ham milliy konseptual asos xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirilgan.

4-jadval

Baholash asoslarining qiyosiy tahlili

Baholash usuli	Milliy konseptual asos	IFRS
Boshlang'ich qiymat	+	+
Joriy qiymat	+	+
Haqqoniy qiymat	+	+
Foydalanish qiymati	+	+
Diskontlangan qiymat	+	+

Tadqiqot davomida diskontlangan qiymat usulining amaliy ahamiyati ham baholandi.

Amaliy misol 2. Diskontlangan qiymatni hisoblash

Tashkilot kelgusi besh yil davomida har yili 100 mln so'm miqdorida pul oqimi olishi kutilmoqda. Diskont stavkasi 12 foizni tashkil etadi.

5-jadval

Kelgusi pul oqimlarining joriy qiymati

Yil	Pul oqimi (mln. so'm)	Diskont koeffitsiyenti	Joriy qiymat (mln. so'm)
1	100	0,893	89,3
2	100	0,797	79,7
3	100	0,712	71,2
4	100	0,636	63,6
5	100	0,567	56,7
Jami	500	-	360,5

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, kelgusi besh yillik pul oqimlarining joriy qiymati 360,5 mln so'mni tashkil etadi. Bu esa moliyaviy hisobotda iqtisodiy voqelikni aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari milliy konseptual asosning yana bir muhim jihati sifatida hisobot axborotining foydaliligini oshirishga qaratilgan sifat xususiyatlari tizimi takomillashtirilganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, haqqoniy taqdim etish va ahamiyatlik tamoyillarining kuchaytirilishi moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar milliy konseptual asosning xalqaro standartlarga yuqori darajada moslashtirilganligini, aktivlar va majburiyatlarni tan olish hamda baholash

bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni o'zida mujassam etganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, haqqoniy qiymat va diskontlangan baholash usullarini amaliyotda keng qo'llash uchun buxgalterlar malakasini oshirish va raqamli hisob tizimlarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining Conceptual Framework hujjati bilan yuqori darajada uyg'unlashtirilganligini ko'rsatdi. Bu holat mamlakatda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy natijasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari IASB (2024) tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi investorlar va kreditorlarga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydali axborot taqdim etishdan iborat ekanligi milliy konseptual asosda ham o'z aksini topgan. Bu esa milliy buxgalteriya tizimining xalqaro kapital bozorlari talablariga moslashayotganligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar Kieso, Weygandt va Warfield (2023) tomonidan bildirilgan fikrlarni ham tasdiqladi. Mualliflar konseptual asos buxgalteriya hisobining nazariy arxitekturasi vazifasini bajarishini ta'kidlagan bo'lsa, tadqiqot natijalari milliy konseptual asos ham aynan shu vazifani bajarayotganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, aktivlar va majburiyatlarning zamonaviy ta'riflari hisobotda iqtisodiy mazmuni huquqiy shakldan ustun qo'yish imkonini bermoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, milliy konseptual asosda belgilangan sifat xususiyatlari xalqaro yondashuvlar bilan to'liq mos keladi. Ahamiyatlilik va haqqoniy taqdim etishning fundamental sifat xususiyatlari sifatida belgilanishi moliyaviy axborotning qaror qabul qilishdagi ahamiyatini oshiradi. Bu holat Needles va Powers (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan hamohang bo'lib, ular moliyaviy axborotning ishonchiligi va qiyoslanuvchanligi investorlar qarorlarining samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaganlar.

Tadqiqot davomida aktivlar va majburiyatlarning ta'riflari bo'yicha olingan natijalar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilgari milliy buxgalteriya amaliyotida aktivlarni tan olishda huquqiy mulkchilikka katta ahamiyat berilgan bo'lsa, yangi konseptual asosda iqtisodiy resurs va nazorat tushunchalari asosiy mezon sifatida belgilangan. Bu esa IFRS Conceptual Framework talablariga mos keladi hamda hisobotning iqtisodiy mazmunini aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Baholash asoslarini tahlil qilish jarayonida milliy konseptual asosda haqqoniy qiymat, joriy qiymat va diskontlangan qiymat kabi zamonaviy baholash usullarining qo'llanilishi nazarda tutilganligi aniqlandi. Bu holat Deegan (2023) va Godfrey va boshqalar (2022) tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan muvofiq keladi. Ushbu olimlar zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aniqlash uchun tarixiy qiymat usulining o'zi yetarli emasligini ta'kidlaydilar.

Korxonalarda CVP-tahlilni qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hisob va hisobot tizimini xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan birgalikda o'rganiladi (Qlichev, 2024).

Shu bilan birga, tadqiqot milliy hisob amaliyotida qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Birinchidan, haqqoniy qiymatni baholash uchun zarur bo'lgan faol bozor ma'lumotlari har doim ham mavjud emas. Bu ayniqsa moliyaviy instrumentlar, investitsion mulk va nomoddiy aktivlarni baholashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, diskontlangan qiymat usulini qo'llash uchun buxgalter va moliya mutaxassislarining kasbiy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalari yetarli darajada emas. Uchinchidan, ayrim tashkilotlarda moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonlari hali ham an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, professional mulohaza tamoyilidan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Har qanday islohot milliy iqtisodiyotning institutsional sharoiti, bozor chuqurligi va mutaxassislar salohiyati bilan uyg'un bo'lmagan taqdirda, kutilgan samarani bermasligi mumkin. Demak, moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishni takomillashtirish masalasida

xalqaro tajribani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va milliy muhitga moslashtirilgan yondashuv eng to'g'ri yo'l hisoblanadi (Tulaev, 2026).

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda konseptual asoslarni samarali qo'llash buxgalterlar malakasi, raqamli axborot tizimlari va mustaqil audit institutlarining rivojlanganligi bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda ham buxgalteriya hisobi sohasidagi mutaxassislarining malakasini xalqaro sertifikatlashtirish dasturlari orqali oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida milliy konseptual asosning amaliy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- buxgalteriya hisobi sohasida IFRS va Conceptual Framework bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini kengaytirish;
- haqqoniy qiymatni baholash bo'yicha milliy metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- raqamli buxgalteriya va korporativ hisobot tizimlarini joriy qilishni rag'batlantirish;
- professional mulohaza tamoyilini qo'llash bo'yicha amaliy yo'riqnomalar tayyorlash;
- milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlar bilan doimiy muvofiqlashtirib borish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari milliy konseptual asosning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga mos ravishda shakllantirilganligini va u mamlakatda moliyaviy hisobot sifati, shaffofligi hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Biroq mazkur hujjatning to'liq samarasiga erishish uchun uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish zarur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari" hamda IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan Conceptual Framework for Financial Reporting hujjatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari bilan uyg'unlashtirish jarayonida konseptual asosning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida milliy konseptual asosning mazmuni va asosiy qoidalari xalqaro konseptual asos talablari bilan yuqori darajada muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan, moliyaviy hisobotning maqsadi, foydali moliyaviy ma'lumotning sifat xususiyatlari, aktivlar va majburiyatlarning zamonaviy ta'riflari, moliyaviy hisobot elementlarini tan olish va baholash tamoyillari xalqaro yondashuvlarga moslashtirilgan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslari buxgalteriya hisobi tizimining fundamental metodologik poydevori hisoblanadi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash hamda taqdim etishda yagona yondashuvni ta'minlaydi.

2. Milliy konseptual asosning qabul qilinishi O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg'unlashtirish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

3. Milliy konseptual asosda moliyaviy axborotning fundamental sifat xususiyatlari sifatida ahamiyatlilik va haqqoniy taqdim etish tamoyillarining belgilanishi hisobot axborotining ishonchliligi va foydaliligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Aktivlar va majburiyatlarning iqtisodiy mazmunga asoslangan zamonaviy ta'riflari tashkilotning haqiqiy moliyaviy holatini to'g'riroq aks ettirish imkonini beradi.

5. Baholashning haqqoniy qiymat, joriy qiymat va diskontlangan qiymat kabi zamonaviy usullarini qo'llash moliyaviy hisobotning axborot qiymatini oshiradi hamda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtiradi.

6. Milliy konseptual asosda belgilangan talablar investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun taqdim etiladigan moliyaviy axborotning qiyoslanuvchanligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

7. Milliy konseptual asosning xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilganligi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun muhim shart hisoblanadi.

8. Tadqiqot natijalari milliy buxgalteriya hisobi tizimida konseptual asoslarni amaliyotga joriy etish darajasi hali ham takomillashtirishni talab qilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, haqqoniy qiymatni baholash va diskontlash usullarini qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.

9. Raqamli iqtisodiyot sharoitida konseptual asos talablarini axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilish moliyaviy hisobot sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

10. Konseptual asoslarning samarali qo'llanilishi korporativ boshqaruvni takomillashtirish, axborot asimmetriyasini kamaytirish va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- milliy buxgalteriya standartlarini IFRS talablari bilan muntazam ravishda muvofiqlashtirib borish;
- buxgalter va auditorlar uchun Conceptual Framework bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- haqqoniy qiymat va diskontlangan qiymatni baholash bo'yicha milliy uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;
- raqamli buxgalteriya tizimlari va avtomatlashtirilgan hisobot platformalarini joriy qilishni kengaytirish;
- tashkilotlarda hisob siyosati va moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayonida professional mulohaza tamoyilidan samarali foydalanishni rag'batlantirish;
- moliyaviy hisobot sifatini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish orqali investorlar va kreditorlarning ishonchini oshirish.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari milliy konseptual asosning buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu hujjatning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va qiyoslanuvchanligini ta'minlash orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik

- O'zbekiston Respublikasining 2026-yilda qabul qilingan milliy konseptual asosi hamda IFRS Conceptual Framework o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar kompleks qiyosiy tahlil qilindi;
- moliyaviy hisobot elementlarini tan olish va baholash bo'yicha milliy hamda xalqaro yondashuvlar tizimlashtirildi;
- milliy konseptual asosning moliyaviy hisobot sifatiga ta'siri baholandi;
- milliy buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalaridan buxgalteriya hisobi standartlarini takomillashtirish jarayonida, tashkilotlarning hisob siyosatini ishlab chiqishda, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash amaliyotida, auditorlik tekshiruvlarini tashkil etishda hamda oliy ta'lim muassasalarida "Buxgalteriya hisobi", "Moliyaviy hisobot" va "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari" fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Alexander, D., Britton, A., & Jorissen, A. (2020). *International financial reporting and analysis* (8th ed.). Cengage Learning.

Atrill, P., & McLaney, E. (2021). *Financial accounting for decision makers* (10th ed.). Pearson Education.

Christensen, H. B., Hail, L., & Leuz, C. (2021). Mandatory IFRS reporting and changes in enforcement. *Journal of Accounting and Economics*, 71(2–3), 101-118.

Deegan, C. (2023). *Financial accounting theory* (6th ed.). McGraw-Hill Education.

Epstein, B. J., & Mirza, A. A. (2022). *Interpretation and application of IFRS standards*. Wiley.

Financial Accounting Standards Board. (1978). *Statement of Financial Accounting Concepts No. 1: Objectives of financial reporting by business enterprises*. FASB.

Financial Accounting Standards Board. (1980). *Statement of Financial Accounting Concepts No. 2: Qualitative characteristics of accounting information*. FASB.

Godfrey, J., Hodgson, A., Tarca, A., Hamilton, J., & Holmes, S. (2022). *Accounting theory* (9th ed.). Wiley.

IASB. (2024). *Conceptual framework for financial reporting*. IFRS Foundation.

IFRS Foundation. (2023). *International Financial Reporting Standards (IFRS Accounting Standards)*. IFRS Foundation.

IFRS Foundation. (2024). *Effects analysis of the Conceptual Framework for Financial Reporting*. IFRS Foundation.

Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2023). *Intermediate accounting* (18th ed.). John Wiley & Sons.

Needles, B. E., & Powers, M. (2022). *Financial accounting* (14th ed.). Cengage Learning.

Nobes, C., & Parker, R. (2022). *Comparative international accounting* (14th ed.). Pearson Education.

Pardayevich, Q. B. (2023). Korxonlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNYYE IDEI V MIRE*, 13(7), 42-49.

Qlichev Baxtiyor. (2025). Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» Jurnal, 3(2), 13–18.

Qlichev, B. (2024). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4).

Qlichev, B. (2026). Xalqaro standartlarga ko'ra milliy buxgalteriya hisobini rivojlantirish yo'nalishlari: IFRS, CAS yoki AAOIFI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 4(4), 179-191.

Qlichev, B. P. (2022). Mahsulot sotish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari. *Science and Education*, 3(5), 1719-1728.

Tulaev, M. (2026). Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishni takomillashtirish. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 4(4), 277-287.

Tulayev, M. (2023). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *Green Economy and Development*, 1(6), 662684.

Tulayev, M.S., & Qlichev, B.P. (2022). *Moliyaviy hisob. (Darslik). T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 510.*

Тулаев, М. (2021). Аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудиторлик текширувини ташкил қилиш масалалари. *Архив научных исследований*, 1(1).

Тулаев, М.С. (2022). Молиявий инвестициялар ҳисоби амалиётини такомиллаштириш. *Архив научных исследований*, 2(1).

Тулаев, М.С. (2023). Ижара олинган асосий воситалар ҳисоби–молиявий фаолиятни молиялаштириш манбаси. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 13(7), 3-15.

Тулаев, М.С., & Кличев, Б.П. (2022). Вопросы совершенствование учета корпоративных облигации: обязательство или капитал. *Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции*, 146-154.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. (2026). *Молиявий ҳисоботни тузиш ва тақдим этишнинг концептуал асослари*. Тошкент.